

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**OMANOV SANJAR QURBONAZAR O'G'LI**

**XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH  
XARAJATLARI HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Omanov Sanjar Qurbonazar o‘g‘li**

Хо‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish.....3

**Оманов Санджар Курбоназар угли**

Совершенствование учета и аудита производственных затрат в хозяйствующих субъектах.....25

**Omanov Sanjar Kurbonazar ugli**

Improvement of accounting and auditing of production costs in economic entities...47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....52

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**OMANOV SANJAR QURBONAZAR O‘G‘LI**

**XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH  
XARAJATLARI HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2021.3.PhD/Iqt1814 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Ibragimov Abdugapur Karimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ochilov Ilyos Keldiyorovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01. raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_\_\_" soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@[tsue.uz](http://tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@[tsue.uz](http://tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_\_" kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_\_\_" dagi \_\_\_\_\_ -raqamli reestr bayonnomasi).

**M.P. Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo moliyaviy arxitekturasida yuz berayotgan global o'zgarishlar, davlatlar o'rtasidagi raqobat jarayonlarining keskinlashuvi xalqaro iqtisodiy munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va yetkazib berish bilan bog'liq bir qancha muammolarni keltirib chiqarib, buning natijasida oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligi, narxlarning sun'iy ravishda oshishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Jahon oziq-ovqat tashkiloti tomonidan e'lon qilingan hisobotga ko'ra, "2023-yilda dunyo miqyosida g'alla yetishtirish 2819 million tonnani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,9 foizga o'sishi, 2023-2024-yillar mavsumida kutilayotgan global don savdosi hajmi esa 469 million tonnani tashkil etib, o'tgan mavsumga nisbatan 1,6 foizga kamayishi kutilmoqda"<sup>1</sup>. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shu narsa ma'lumki, dunyo bo'yicha don yetishtirish o'tgan yillarga nisbatan o'sgan bo'lsa-da, biroq savdosi o'tgan mavsumlarga nisbatan sezilarli pasaygan. Xomashyolarni yetkazib berish xarajatlarining oshishi kabi muammolarning mavjudligi ishlab chiqarishda qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltirib, ularning savdosiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jahonda global moliyaviy beqarorlikning kuchayishi sharoitida korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobini to'g'ri tashkil etish, ularni minimallashtirish, ortiqcha sarf-xarajatlarni qisqartirish, tannarxni optimallashtirish bo'yicha qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etishning uslubiy asoslarini takomillashtirish; mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish; donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish; ishlab chiqarish xarajatlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda innovatsion yondashuvlarni kuchaytirish; auditning umumiy rejasi va dasturi, ichki nazorat muhitini baholash usullarini takomillashtirish; donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditini to'g'ri tashkil etish; ichki nazorat tizimining samarali ishlashini ta'minlash; buxgalteriya hisobida mavjud bo'lgan firibgarliklarni aniqlash va ularning oldini olish kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ishlab chiqarish xarajatlari hisobini boshqaruv hisobining tarkibida rivojlantirish va metodologik asosini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikada ishlab chiqarish xarajatlari hisobining eng zamonaviy usullarini ishlab chiqish, tannarxni boshqarish, zamonaviy kosting tizimlarini joriy qilish, ishlab chiqarish xarajatlariga doir axborotlardan moliyaviy va boshqaruv hisobi maqsadlarida foydalanishning zamonaviy konsepsiyasi, ishlab chiqarish xarajatlari hisobining innovatsion formatlarini yaratish masalalari bo'yicha izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Yetakchi tarmoqlar korxonalarida tannarxni pasaytirish yo'nalishlarini aniqlash hamda aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish, raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqishdagi mavjud

---

<sup>1</sup> [www.faostatistics.com](http://www.faostatistics.com) ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

muammolarni bartaraf etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Sanoat tarmoqlarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar qatorida belgilab berilganidek, "Sanoat korxonalari boshqaruv tizimida muammolar bor. Mahsulotlar tannarxini tushirish kerak. Bu raqobat muhitini yaratishning muhim asosidir"<sup>2</sup>. Yuqoridagilarning barchasi, jumladan, mahsulot tannarxi hisobining zamon talablariga mos metodologiyasini ishlab chiqishning obyektiv zaruriyati mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5210-son "Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi, 2022-yil 11-apreldagi 171-son "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni hal qilishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditining nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish hamda uni takomillashtirish bo'yicha bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar, jumladan, S. Aryantini, S. Jumono, A.V. Ilina, N.N. Ilisheva, D.M. Akbasheva, N.N. Seleznev, A.F. Ionova, V.P. Suys, A.D. Sheremet, O.V. Yefimova va S.P. Polenova ilmiy tadqiqotlar olib borishgan<sup>3</sup>.

Mamlakatimiz olimlaridan A.Z. Avlokulov, A.I. Aliqulov, N.B. Abdusalomova, R.D. Dusmuratov, A.K. Ibragimov, M.B. Kalonov, N.F. Karimov, N.Ishonqulov, A.Ibrohimov, R.O. Xolbekov, B.A. Hasanov, N.Sh. Xajimuratov, A.Xashimov, A.X.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida sanoat tarmoqlaridagi 9 oylik natijalar va yil yakunigacha bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi.

<sup>3</sup> Aryantini, S & Jumono, S. (2021). Profitability and value of firm: An evidence from manufacturing industry in Indonesia. *Accounting*, 7(4), 735-746; *Управленческий учет: учеб. пособие* / А. В. Ильина, Н. Н. Ильшева. – Екатеринбург: Урал, 2016. – 180 с.; Акбашева Д.М. Особенности учета затрат и калькулирования себестоимости продукции // *Вестник Евразийской науки / The Eurasian Scientific Journal* <https://esj.today> 2020, №6, Том 12 / 2020.; Селезнева Н.Н., Ионова А.Ф. Финансовый анализ. Управление финансами: учеб. пособие/ Н.Н. Селезнева, А.Ф. Ионова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: YuNITI-DANA, 2012. – 624 с; Шерemet А.Д., Суйц В.П. Аудит: Учебник. – М.: ИНФРА-М., 2005. – 448 с.; Ефимова О. В. Анализ собственного капитала // *Бухгалтерский учет*. 1999. № 1. – 82 с.; Поленова С.П. Взаимосвязь производственных затрат в управленческом и финансовом учете. *Управленческий учет* 8(224) 2008.

Shoalimov, A.J. Tuychiyev, I.N. Qo‘ziyev, O.Masharipov, Sh.Fayziyevlarning<sup>4</sup> ilmiy izlanishlari ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflarning tadqiqotlarida mahsulot tannarxiga kiruvchi xarajatlarni tasniflash, tavsiflash, tan olish, baholash, hisob va hisobotda aks ettirishning ilg‘or usullari, ulardan respublikada foydalanish masalalari chuqur tadqiq etilmagan. Bu, o‘z navbatida, ushbu mavzuda ilmiy-tadqiqot olib borish, shuningdek, uning maqsadi va vazifalarini belgilashni taqozo qiladi.

**Dissertatsiyaning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, FM-6-raqamli “O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohaları taraqqiyotining konseptual yo‘nalishi” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning nazariy asoslarini tadqiq qilish hamda korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish usullarini tadqiq qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;

donni qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq asosiy va yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

ishlab chiqarish xarajatlarini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishda tahliliy amallarni qo‘llash bo‘yicha takliflar tayyorlash;

donni qayta ishlash korxonalarida moliyaviy hisoboti auditi umumiy rejasi va dasturini tuzishni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

donni qayta ishlash korxonalarida ichki nazorat muhitini baholash usullarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash va xulosalar shakllantirish.

---

<sup>4</sup> Avlokulov A.Z. Moliyaviy natijalar hisobi va auditi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019. – 192-b.; Aliqulov A.I. Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 188-b.; N.Sh. Xajimuratov. “Moliyaviy hisobot auditi metodologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2021-y. – 36-b.; N.B. Abdusalomova. Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va byudjetlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2019. – 75-b.; Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 476-b.; A.K. Ibragimov va b. Amaliy boshqaruv hisobi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2016; M.B. Kalonov Daromadlar va xarajatlar hisobi uslubiyotini takomillashtirish. Monografiya. – T.: Iqtisod-moliya, 2019-yil. – 254-bet; N.F. Karimov. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil qilish va uning uslubiyotini takomillashtirish muammolari: Dis. avtoref. ... iqt. fan. d-ri. – T.: 2007.; Vahabov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Darslik. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – T.: Iqtisod-moliya, 2013; Xasanov B., Xashimov A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: Cho‘lpon, 2013. – 23-b.; Shoalimov A.X. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T.: Lesson-press, 2016; Tuychiyev A.J. Majburiyatlar hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolari. Monografiya. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010. – 272-b.; A.Tuychiyev, I.Qo‘ziyev, O.Masharipov, A.Avlakulov, Fayziyev Sh., Dustmuradov R. va boshqalar. Audit. Darslik. – T. Iqtisod-moliya, 2015-y. 536-b; Xolbekov R.O. Ishlab chiqarish hisobini tashkil qilish tamoyillari va uslubiyoti. – T.: “FAN”, 2005. – 198-b.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** “O‘zdonmahsulot” AK tizimidagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish hamda rivojlantirish jarayonida sodir bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuyi tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy tahlil, guruhlash, taqqoslash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

don mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar holati va harakati hisobini ifodalovchi buxgalteriya schyotlari tarkibiga 1016-“Ikkilamchi don mahsulotlari, don chiqindilari va boshqa xom ashyolar” ishchi schyotini kiritish asosida mazkur korxonalar moliyaviy hisobotlaridagi axborotlarning shaffofligini oshirish asoslangan;

don mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarini hisob siyosatiga 2011-“Urug‘lik don qayta ishlash” ishchi schyotini kiritish asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida hisob axborotlarini to‘g‘ri shakllantirish hamda mahsulot tannarxini to‘g‘ri aniqlash taklifi asoslangan;

don mahsulotlari korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari buxgalteriya schyotlari tarkibiga 2311-“Tovar donni quritish, tozalash va qo‘shimcha ishlov berish bo‘yicha xarajatlar” ishchi schyotini kiritish orqali tovar donni quritish, tozalash va qo‘shimcha ishlov berish bo‘yicha xarajatlar hisobini to‘g‘ri tashkil etish hamda mahsulot tannarxini to‘g‘ri aniqlash taklif etilgan;

don ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari bilan bog‘liq jarayonlar auditining umumiy reja va dasturini tuzish orqali auditni rejalashtirish bosqichida auditorlar tomonidan dastlabki audit strategiyasini ishlab chiqish takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tayyor mahsulotlar tannarxini aniq shakllantirish, foydalanuvchilar tomonidan to‘g‘ri strategik va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ta‘minlash maqsadida xarajatlarning takomillashgan tasnifi taklif etilgan;

donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari minimallashtirish va foydani maksimallashtirish maqsadida ishlab chiqarish quvvatlari va ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash, moddiy resurslarni mahsulot sifatiga ta‘sir etmaydigan darajada tejash, ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko‘rsatish xarajatlari qisqartirish uslubi tavsiya etilgan;

donni qayta ishlash korxonalarini moliyaviy hisobot auditida auditorlik dalillarini to‘plashning quyidagi, ya‘ni tekshiruv, kuzatuv, tashqi tasdiqnoma, qayta hisoblash, qayta amalga oshirish, tahliliy amallar va so‘rov kabi usullaridan foydalanish tavsiya etilgan;

moliyaviy hisobot auditining xolis va shaffofligini ta‘minlash, xarajatlarning to‘g‘ri tasniflanganligini aniqlash maqsadida donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq nazorat muhitini samarali baholash tizimini qo‘llash taklif etilgan.



**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning umum tan olinganligi hamda maqsadga muvofiqligi, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlarining rasmiy manbalardan olinganligi, korxonalariga oid ma’lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotdan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning korxonalar tomonidan ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditida foydalanishga joriy qilinganligi bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni jadal joriy etish, “Boshqaruv hisobi”, “Audit va tegishli xizmatlar”, “Audit nazariyasi va amaliyoti” fanlarini rivojlantirishga xizmat qilishi, shuningdek, ushbu fanlar nazariyasi va uslublarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar buxgalteriya hisobi va audit ishlarining to‘g‘ri va o‘z vaqtida tashkil etilishi hamda samarali yuritilishi, boshqaruv qarorlari uchun ma’lumotlar olish imkoniyatini beruvchi moliyaviy hisobotning ishonchlilik darajasini oshirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

don mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlaridagi axborotlarning shaffofligini oshirish maqsadida tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga 1016-“Ikkilamchi don mahsulotlari, don chiqindilari va boshqa xom ashyolar” ishchi schyotini kiritish bo‘yicha taklifi “G‘alla-alteg” AJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“G‘alla-alteg” AJning 2023-yil 22-sentyabrdagi 01/1046-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, ikkilamchi don mahsulotlari, don chiqindilari va boshqa xomashyolar bo‘yicha aniq, to‘g‘ri va to‘liq analitik ma’lumotlarni shakllantirish imkoniyati yaratilgan;

don mahsulotlari korxonalarida mahsulot tannarxini to‘g‘ri aniqlash maqsadida hisob siyosatiga 2011-«Urug‘lik donni qayta ishlash» ishchi schyotini kiritish bo‘yicha taklifi “G‘alla-alteg” AJ tomonidan joriy qilingan (“G‘alla-alteg” AJning 2023-yil 22-sentyabrdagi 01/1046-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, don mahsulotlari korxonalarida urug‘lik donni qayta ishlash bo‘yicha hisob axborotlarining to‘g‘ri shakllanishi ta’minlangan;

don mahsulotlari korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga 2311-«Tovar donni quritish, tozalash va qo‘shimcha ishlov berish bo‘yicha xarajatlar» ishchi schyotini kiritish bo‘yicha taklifi “G‘alla-alteg” AJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“G‘alla-alteg” AJning 2023-yil 22-sentyabrdagi 01/1046-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi, tovar donni quritish, tozalash va qo‘shimcha ishlov berish bo‘yicha xarajatlar hisobining to‘g‘ri tashkil etilishi va mahsulot tannarxining to‘g‘ri aniqlanishi imkonini bergan;

ishlab chiqarish xarajatlari auditini samarali tashkil etish maqsadida takomillashgan audit rejasini qo‘llash bo‘yicha tavsiya “G‘alla-alteg” AJ tomonidan

joriy qilingan (“G‘alla-alteg” AJning 2023-yil 22-sentyabrdagi 01/1046-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, audit tekshiruvlarining tizimli tashkil etilishiga hamda mehnat va vaqt xarajatlarining qisqarishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, shu jumladan, 5 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza shaklida bayon etilgan, muhokamadan o‘tkazilgan va ma’qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 4 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 105 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan; olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditining nazariy va normativ-huquqiy asoslari**» deb nomlanib, unda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditining nazariy jihatlari, maqsadi, vazifalari, normativ-huquqiy asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish masalalariga iqtisodchi olimlarning ilmiy va o‘quv-uslubiy asarlarida keng e’tibor qaratilgan.

Soha mutaxassislari A.Vahabov, N.Ishonqulov, A.Ibrohimovlarning fikricha, “Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydaning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklining kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o‘rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir”<sup>5</sup>.

Iqtisodchi olimlar B.Xasanov va A.Xashimovlar o‘z asarlarida “Xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflarning puldagi ifodasidir”<sup>6</sup>, degan fikrni bildirganlar.

Iqtisodchi olimlar R.I. Israilov va B.Y. Maxsudovlar tomonidan ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risida quyidagi yondashuv ko‘rsatib o‘tilgan: “Korxonalarda

---

<sup>5</sup> Vahabov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Darslik. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – T.: Iqtisod-moliya, 2013.

<sup>6</sup> Xasanov B., Xashimov A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: Cho‘lpon, 2013. – 23-b.

xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat xarajatlari va favqulodda xarajatlarga bo‘linadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari o‘z vazifasiga qarab elementlari va kalkulyatsiya moddalariga bo‘linadi. Elementlari bo‘yicha guruhlash ishlab chiqarish xarajatlarini ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra aniqlash va tegishli smetalar tuzish uchun xizmat qiladi. Kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha guruhlash esa mahsulot tannarxini hisoblash uchun kerak bo‘ladi”<sup>7</sup>.

Soha mutaxassisi A. Shoalimov va boshqalarning fikricha, “xarajat – bu mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlarni sotish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflarning puldagi ifodalanishidir”<sup>8</sup>.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish hisobini tashkil etishda dastlabki bajariladigan amallardan biri hisobni tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslarning mavjudligi va uni ishlab chiqarish faoliyatida qo‘llash hisoblanadi.

Quyida keltirilgan jadvalda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish hisobini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar keltirib o‘tilgan (1-jadval).

### 1-jadval

#### Ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari<sup>9</sup>

Pog‘ona darajasi	Normativ-huquqiy asoslari
1-pog‘ona	Ishlab chiqarish hisobini bevosita va bilvosita tashkil etishni tartibga soluvchi qonunlar, farmonlar va qarorlar (O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari)
2-pog‘ona	Ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning bazaviy tamoyillarini umumlashtiruvchi me‘yoriy hujjatlar (moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, buxgalteriya hisobi milliy standartlari va boshqalar)
3-pog‘ona	Korxonalarda ishlab chiqarish obyektlari hisobini yuritish mexanizmi, xususiyatlarini aks ettiruvchi ishlab chiqarish hisobining tashkiliy, texnik va uslubiy jihatlarini mujassamlashtirgan hisob siyosati

Ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning dastlabki normativ-huquqiy asosini “O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni<sup>10</sup> tashkil etadi.

Ushbu qonun talablari bo‘yicha hisob obyektlaridan biri bo‘lgan ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom<sup>11</sup> va boshqa hujjatlar ishlab chiqilgan.

<sup>7</sup> Israilov R.I., Maxsudov B.Y. Boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Namangan, 2020. – 261-b.

<sup>8</sup> Shoalimov A.X. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T.: Lesson-press, 2016.


<sup>9</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.

<sup>10</sup> “O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘RQ-404-sonli qonuni.

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi nizom.

“Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli 1-sonli BHMS<sup>12</sup> xo‘jalik yurituvchi subyektning turli hisobot davrlaridagi moliyaviy hisobotlari, shuningdek, turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlari qiyoslanishini ta’minlash maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotini shakllantirish va tuzish uchun asoslarni belgilab beradi.

2019–2022-yillar davomida eksport va import qilingan bug‘doy va un mahsulotlari miqdori o‘rganilganda, quyidagi ma’lumotlar olindi (1-rasm).



**1-rasm. 2019–2022-yillarda eksport va import qilingan bug‘doy va un mahsulotlari miqdori (ming tonnada)<sup>13</sup>**

Mamlakatimizda bug‘doy va un ishlab chiqarish oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim hisoblanadi. So‘nggi yillarda bug‘doy va un mahsulotlari eksporti va importiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Bug‘doy mahsulotlari importi 2019-yilda 1674,5 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2022-yilda 1887,8 ming tonnaga yetgan. Eksporti 2019-yilda 43,6 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 47,1 ming tonnaga yetgan. Un mahsulotlari importi 2019-yilda 345,5 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2022-yilda 298,2 ming tonnaga yetgan. Eksporti 2019-yilda 235,4 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 686,3 ming tonnaga yetgan.


Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, respublikamizda donni qayta ishlash hajmi yildan-yilga o‘sib bormoqda va eksport qilish salohiyati oshmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida tub islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlar jarayonida yana bir asosiy e’tibor xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish, uning sifati va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazishga qaratilmoqda.

2-rasmda “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi donni qayta ishlash korxonalarini tomonidan 2018–2022-yillar kesimida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar dinamikasi keltirilgan.

<sup>12</sup> «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-sonli BHMS.

<sup>13</sup> Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan e‘lon qilingan “2023-yil yanvar-sentabr oylari bo‘yicha qishloq xo‘jaligining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili”. 2023-yil.



**2-rasm. 2018–2022-yillar kesimida “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining o‘shish sur‘ati<sup>14</sup>, foizlarda**

2022-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘shish sur‘ati 108,2 foiz, xalq iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish o‘shish sur‘ati 113,2 foizni tashkil etdi. Natura ko‘rinishida esa un ishlab chiqarish 88,9 foiz, omuxta yem ishlab chiqarish 88,9 foizga yetdi.

Amaliyotda ishlovchi ishlab chiqarish tannarxini hisobga olish bilan shug‘ullanuvchi buxgalterlar uchun kasbiy malaka va tayyorgarlik juda muhimdir. Buxgalteriya hisobi mutaxassislari bilim olish, tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, sohaga oid qoidalar bilan tanishish, texnologiyani qo‘llash va uzluksiz kasbiy rivojlanishni rag‘batlantirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish amaliyotining aniqligi va samaradorligini ta‘minlashi mumkin. Hamkorlik, axloqiy xulq-atvor va professional standartlarga rioya qilish ham sohada ishonchni saqlab qolish uchun zarur.

Auditning dastlabki bosqichlaridan biri – bu auditni rejalashtirish bo‘lib, mazkur bosqichning to‘g‘ri tashkil etilganligi, reja va dasturlarning maqsadga muvofiq tarzda tuzilganligi, auditorlik ish sifati va auditorlik fikrining ishonchlilik darajasini oshirish, auditorlar vaqti va ish hajmini kamaytirishga xizmat qiladi.

Auditni rejalashtirish bosqichida, odatda, auditor tomonidan ikkita hujjat, ya‘ni audit rejasi va audit dasturi ishlab chiqiladi. Xalqaro amaliyotda esa auditning rejalashtirish bosqichida auditorlar tomonidan dastlab audit strategiyasi, keyingi o‘rinlarda audit rejasi tuziladi. Biroq audit rejasi va dasturining qat‘iy shakli mavjud emas, shu sababli auditorlar o‘zlarining professional mulohazalaridan kelib chiqqan holda, rejani shakllantiradi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tekshirish bo‘yicha tartib-taomillar, axborot manbalari va qo‘llaniladigan usullarni o‘z ichiga olgan audit dasturi taklif etilgan (2-jadval).


<sup>14</sup> “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasining ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

**Donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari auditi dasturi<sup>15</sup>**

Tartib-taomillar ro'yxati	Axborot manbasi (yoki auditorlik dalillari)	Qo'llaniladigan usullar
Ishlab chiqarish xarajatlari bilan bog'liq ichki nazorat holatini baholash	Vazifalar taqsimoti, boshlang'ich hisob hujjatlari, tannarxni shakllantirish bo'yicha ichki va me'yoriy hujjatlar	So'rov, tekshiruv
Buxgalteriya o'tkazmalarining qoidalarga muvofiqligini tekshirish	Qaror, standart, nizom	Tashqi tasdiqnoma, tekshiruv
Ishlab chiqarish tannarxining to'g'ri shakllantirilganligini tekshirish	Tayyor mahsulot kalkulyatsiyasi	Qayta hisoblash
Tayyor mahsulot kalkulyatsiyasini boshlang'ich hisob hujjatlari bilan solishtirib tekshirish	Tayyor mahsulot kalkulyatsiyasi, bosh kitob, 2010-schyot ma'lumotlari, buxgalteriya balansi	Taqqoslash, tekshiruv
Moliyaviy natijalar hisobotida mahsulot tannarxining to'liq aks ettirilganligi va natijada yalpi foyda to'g'ri hisoblanganligini tekshirish	2010-schyot ma'lumotlari, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	Qayta hisoblash, tekshiruv

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditi tashkiliy-uslubiy ta'minotining hozirgi holati**» deb nomlanib, unda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi tashkiliy-uslubiy ta'minotining hozirgi holati, ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini tashkil etish va o'tkazishning amaldagi holati o'rganilgan; ishlab chiqarish xarajatlari auditini tashkil etish va o'tkazishning hozirgi holati tadqiq qilish asosida xulosa shakllantirilgan; taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida don mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarining tovar-moddiy zaxiralari tarkibiga 1016-“Ikkilamchi don mahsulotlari, don chiqindilari va boshqa xomashyolar” ishchi schyotini kiritish taklif etilgan (3-rasm).



**3-rasm. 1016-“Ikkilamchi don mahsulotlari, don chiqindilari va boshqa xomashyolar” ishchi schyotining boshqa schyotlar bilan korrespondensiyasi<sup>16</sup>**

<sup>15</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi.

Mazkur taklifning donni qayta ishlovchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga joriy etilishi natijasida tovar-moddiy zaxiralar hisobini to‘g‘ri hamda oqilona hisobga olishda aniq va adolatli yondashuv ta‘minlanishiga erishilgan. Shuningdek, don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy hisobotlaridagi axborotlar shaffofligi oshgan.

Korxonada pul mablag‘lari va debitorlik qarzlaridan keyin pulga tez aylanuvchi aktivlardan biri tovar-moddiy zaxiralardir. “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiruvchi “G‘alla-Alteg” AJ, “Dunyo-M” AJ, “Jomboydonmahsulotlari” AJ, “Jizzaxdonmahsulotlari” AJda 2018–2022-yillar davomida tovar-moddiy zaxiralar va ular tarkibi o‘zgarishi 3-jadvalda keltirib o‘tilgan.

### 3-jadval


#### “G‘alla-Alteg” AJ, “Dunyo-M” AJ, “Jomboydonmahsulotlari” AJ, “Jizzaxdonmahsulotlari” AJda 2018–2022-yillar davomida tovar-moddiy zaxiralar va ularning tarkibi o‘zgarishi<sup>17</sup>, ming so‘mda

Ko‘rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2022-yilda 2018-yilga nisbatan o‘zgarishi, %
<b>“G‘alla-Alteg” AJ</b>						
<b>Tovar-moddiy zaxiralar, jami</b>	<b>54 091 612</b>	<b>57 781 489</b>	<b>108 463 653</b>	<b>95 024 070</b>	<b>98 215 039</b>	<b>181,6</b>
shu jumladan:						
Ishlab chiqarish zaxiralari	52 449 000	54 771 216	104 166 407	91 952 165	88 227 754	168,2
Tugallanmagan ishlab chiqarish	0	0	0	0	0	0
Tayyor mahsulot	1 566 628	2 939 848	2 471 585	3 045 818	7 833 638	500
Tovarlar	75 984	70 426	1 825 661	26 091	2 153 647	2834,3
<b>«Dunyo-M» AJ</b>						
<b>Tovar-moddiy zaxiralar, jami</b>	<b>129 874 683</b>	<b>210 128 925</b>	<b>215 398 924</b>	<b>164 500 426</b>	<b>383 298 743</b>	<b>295,1</b>
shu jumladan:						
Ishlab chiqarish zaxiralari	124 967 183	200 740 111	209 857 623	159 518 366	373 562 074	298,9
Tugallanmagan ishlab chiqarish	0	0	0	0	0	0
Tayyor mahsulot	3 650 088	9 388 814	4 806 185	4 634 374	9 161 992	251
Tovarlar	1 257 412	0	735 116	347 686	574 677	45,7
<b>«Jomboydonmahsulotlari» AJ</b>						
<b>Tovar-moddiy zaxiralar, jami</b>	<b>84 774 125</b>	<b>131 681 761</b>	<b>135 723 899</b>	<b>138 670 450</b>	<b>262 869 978</b>	<b>310,1</b>
shu jumladan:						
Ishlab chiqarish zaxiralari	78 625 199	122 716 116	12 930 287	134 546 527	245 235 887	311,9
Tugallanmagan ishlab chiqarish	0	123 956	0	0	0	-
Tayyor mahsulot	4 164 233	5 365 479	5 002 716	3 174 763	17 093 625	410,5
Tovarlar	1 984 693	3476 210	1 414 896	949 430	540 466	27,2
<b>«Jizzaxdonmahsulotlari» AJ</b>						
<b>Tovar-moddiy zaxiralar, jami</b>	<b>60 725 785</b>	<b>108 309 359</b>	<b>123 472 799</b>	<b>85 152 506</b>	<b>189 717 526</b>	<b>312,4</b>
shu jumladan:						
Ishlab chiqarish zaxiralari	59 733 639	106 028 646	121 063 000	83 928 029	173 164 631	289,9
Tugallanmagan ishlab chiqarish	0	6 160	0	0	0	
Tayyor mahsulot	647 030	2 175 749	1 918 495	1 209 347	16 498 291	2549,8
Tovarlar	345 116	98 804	491 304	15 130	54 604	15,8

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida tovar-moddiy

<sup>17</sup> «G‘alla-Alteg» AJ, «Dunyo-M» AJ, «Jomboydonmahsulotlari» AJ, «Jizzaxdonmahsulotlari» AJ buxgalteriya balansi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


zaxiralar va ularning tarkibi 2022-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli o‘sgan va ushbu holatni korxonalar uchun ijobiy holat sifatida baholash mumkin.



**4-rasm. “G’alla-Alteg” AJ, “Dunyo-M” AJ, “Jomboydonmahsulotlari” AJ, “Jizzaxdonmahsulotlari” AJda 2018–2022-yillar davomida tovar-moddiy zaxiralarning o‘zgarishi dinamikasi, ming so‘mda<sup>18</sup>**

Yuqorida keltirilgan diagrammadan shunday xulosa qilish mumkinki, 2018–2022-yillar davomida mazkur tahlil etilayotgan korxonalarda tovar moddiy zaxiralar sezilarli darajada o‘sgan.

Quyidagi rasmda “G’alla-Alteg” AJ, “Dunyo-M” AJ, “Jomboydonmahsulotlari” AJ, “Jizzaxdonmahsulotlari” AJda 2018–2022-yillar davomida ishlab chiqarish zaxiralarning o‘zgarishi dinamikasi keltirilgan (5-rasm).



**5-rasm. “G’alla-Alteg” AJ, “Dunyo-M” AJ, “Jomboydonmahsulotlari” AJ, “Jizzaxdonmahsulotlari” AJda 2018–2022-yillar davomida ishlab chiqarish zaxiralarning o‘zgarishi dinamikasi, ming so‘mda<sup>19</sup>**

<sup>18</sup> «G’alla-Alteg» AJ, «Dunyo-M» AJ, «Jomboydonmahsulotlari» AJ, «Jizzaxdonmahsulotlari» AJ ning 2018–2022-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>19</sup> «G’alla-Alteg» AJ, «Dunyo-M» AJ, «Jomboydonmahsulotlari» AJ, «Jizzaxdonmahsulotlari» AJ ning 2018–2022-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



Yuqorida keltirilgan diagrammadan shunday xulosa qilish mumkinki, 2018–2022-yillar davomida mazkur tahlil etilayotgan korxonalarda ishlab chiqarish zaxiralarining yil oxiridagi qoldig‘i o‘shishni qayd etib, xususan, 2022-yilda o‘zining yuqori nuqtasiga yetgan.

Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi asosiy vositalar – bu joriy aktivlardir. Joriy aktivlar bir ishlab chiqarish davrida bir turdan boshqa turga aylanadi. Joriy aktivlar tarkibini, asosan, pul mablag‘lari, debitorlik qarzlari va tovar-moddiy zaxiralar tashkil etadi. Mazkur aktivlarni auditdan o‘tkazish va unda tahliliy amallarni qo‘llash muhim hisoblanadi.

Tahliliy amallarning auditor tomonidan bajarilishida keyingi muhim masala korxonalar balans likvidligini tahlil qilish bo‘lib, uning aniqlanishi korxonalar o‘z majburiyatlarini tez bajarish imkoniga ega yoki yo‘qligi, pulga tez aylanadigan aktivlar mavjud yoki mavjud emasligini ko‘rish imkonini beradi.

Auditorlik faoliyatida iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanish auditor uchun auditni har tomonlama sifatli o‘tkazish, auditorlik riskini minimallashtirish va korxonalar faoliyati bilan bog‘liq muammolarni aniqlash hamda shunga mos ravishda mijoz uchun asosli takliflar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Tahliliy amallarning samaradorligi ko‘p jihatdan usullarning to‘g‘ri tanlanishi, ko‘rsatkichlar tarkibini belgilash va tahlil o‘tkazish ketma-ketligiga bog‘liq. Shu bilan birga, tahliliy amallardan ichki auditorlik xizmati samaradorligini oshirishda ham foydalanish mumkin. Quyida “G‘alla-Alteg” AJning 2018–2022-yillar davomida moliyaviy mustaqillik, aktivlar rentabelligi va to‘lov qobiliyati koeffitsiyentlari tahlili keltirilgan (4-jadval).

#### 4-jadval

##### “G‘alla-Alteg” aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili<sup>20</sup>

Yillar	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	Aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti	To‘lov qobiliyati koeffitsiyenti
2018	0,21	0,02	0,95
2019	0,29	0,09	1,01
2020	0,65	0,24	1,27
2021	0,48	0,11	1,30
2022	0,69	0,18	1,43
<b>2022-yilda 2018-yilga nisbatan o‘zgarishi</b>	<b>0,48</b>	<b>0,16</b>	<b>0,48</b>

Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, “G‘alla-Alteg” AJ moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti oxirgi 5 yil ichida 0,48 punktga ko‘payib, 2022-yil 1-yanvar holatiga 0,69, to‘lovga layoqatlilik koeffitsiyenti ham 0,48 punktga ko‘payib, 1,43 hamda aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti 0,16 punktga ko‘payib, 0,18 ni tashkil qilgan. Moliyaviy koeffitsiyentlar ko‘payishi korxonalar uchun ijobiy holat hisoblanadi.

